



SAN'ATSHUNOSLIK ASOSLARI MASHG'ULOTINING SAMARADORLIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19018477>

Niyazov Kamoladdin Seidamatovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

“San’at” kafedrası katta o’qituvchisi

Yusufova Ilmira Komiljon qizi

“San’at” kafedrası “TSvaMG”

yo’nalishi sirtqi bo’lim talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqola San’atshunoslik asoslarini o’qitishda didaktikaning ilmiylik, ko’rgazmalilik, muntazamlilik va ketma-ketligi, ta’lim va tarbiyaning birligi printsiplariga rioya qilishni talab etish va shuningdek, o’qituvchi tomonidan ko’proq kinofilm, videofilm, diafilm, diapozitiv, slayd, san’at asarlarining reproduksiyalari, foto nusxalaridan foydalanishi borasida mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *konstruktsiya, reproduksiya, abstraktlik, konkretlik, printsip musavvir, didaktika, kompozitsiya, viktorina, chaynvord, krasvord.*

Annotatsiya: *В данной статье рассматриваются соображения относительно необходимости соблюдения принципов научности, наглядности, регулярности и последовательности дидактики, единства воспитания и обучения основам истории искусства, а также использования преподавателем большого количества фильмов, видеозаписей, диафильмов, слайдов, репродукций произведений искусства и фотокопий.*

Ключевые слова: *конструирование, воспроизведение, абстракция, конкретность, принцип, дидактика, композиция, викторина, цепочка слов, кроссворд.*

Abstract: *This article presents considerations on the requirement to observe the principles of scientificity, demonstration, regularity and sequence of didactics, unity of education and upbringing in teaching the basics of art history, as well as the teacher's use of a large number of films, videos, filmstrips, slides, reproductions of works of art, and photocopies.*

Keywords: *construction, reproduction, abstraction, concreteness, principle, didactics, composition, quiz, chainword, crossword.*

KIRISH



San'atning idrok qilish bo'limining vazifasi bolalarda badiiy madaniyatni idrok qilishni baholash jamiyat va kishilar orasida san'atning ahamiyatini tushunishdan iborat. Badiiy asarning o'rgatish san'atining idrok qilish ko'nikmalarini hosil qilishga xizmat qiladi.

Tasviriy san'at haqidagi suhbatlarni o'tkazishda o'qituvchi asarlarining kompozitsion tuzilishiga, ranglar gammasiga o'quvchilar diqqatini tortish lozim. Tasviriy san'at asari haqidagi suhbat, savol-javob va hikoya qilib berish tarzida amalga oshiriladi. Berilgan savollar bolalarni aktiv fikr yuritishga, diqqatini rassom asari mazmunining muhim tomonini idrok qilishga majbur etsin.

Suhbatning muvaffaqiyatli chiqishi ko'p jihatdan reproduksiyalar ko'rsatishning to'g'ri yo'lga qo'yilishiga bog'liq. Suratlar rangli, sifatli, hamda hamma bolalarga aniq ko'rinadigan bo'lishi kerak.

San'at asarlarini tahlil qilish bolalarda badiiy idrok etish masalalarini rivojlantiradi, san'at tarixidan maxsus termin va tushunchalarni o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Suhbat shunday tashkil etilishi kerakki, u asar mazmunini ochib beribgina qolmay, rassom jonli obraz yaratishda qanday vositalardan foydalanganligini bilib olishlariga imkon bersin. Borliq haqida suhbatlar ba'zi bir hayot xodisalarini kengroq bilib olishlariga yordam beradi, narsalarning shakli, konstruktsiyasini elementar tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatlarini

hamda kuzatuvchanligini o'stirish imkonini beradi¹¹.

Aytaylik, kuz mavzusidagi asarni tahlil qilishda faqat kuz mavzusidagi asar bilangina emas, balki bunday asarlarni bahor, qish mavzusidagi asarlar bilan ham solishtirib o'rgansa bo'ladi.

San'at asarlarini reproduksiyalarini texnika vositalari orqali namoyish etganda asarlardagi detallarni yirik holda ko'rsatilishi obrazlarni chuqur idrok etish, portretlarda shaxsning ichki dunyosini tushunib etishga imkon beradi.

San'atshunoslik mashg'ulotlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularni turli yo'llar va metodlarni qo'llash orqali o'tkazilishiga ham bog'liq. Xususan, bunday mashg'ulotlardan bolalarga san'at asari haqida insho yozdirish, san'at turlari yoki janrlariga oid reproduksiyalar yig'dirish yoki u yoki bu rassom haqida materiallar to'platish, tasviriy san'atga doir viktorina, krasvordlar echtirish, o'zi yashaydigan joydagi rassomlar bilan uchrashib, ular haqida ma'lumot to'plash yoki albomlar tayyorlash mumkin. Bunday ishlar amaliy bezak, me'morchilik san'atlari yuzasidan ham olib borilishi mumkin.

San'atshunoslik asoslari mashg'ulotining samaradorligi, ularni maktabda o'qitiladigan boshqa fanlar bilan aloqadorlikda o'qitilishiga ham bog'liqdir. Ayniqsa, san'atshunoslik

¹¹ Ойдинов Н. Рассом - ўқитувчилар тайёрлаш муаммолари. Т.Ўқитувчи, 1997.



asoslari darslarini tarix, geografiya, adabiyot, zoologiya, musiqa darslari bilan aloqadorlikda o'tkazish imkoniyatlari mavjud.

Yurtimiz san'ati tarixi va zamonaviy badiiy jarayonning dolzarb muammolarini yangicha taxlil asosda o'rgatish va yoritish maqsadida umumiy ta'lim maktablarida tasviriy san'at darslarining o'qitilish jarayoniga yangicha nazar bilan yondoshish vazifalari fan o'qituvchilari zimmasiga yuklatildi.

Tasviriy san'at darslarida na faqat badiiy asarlarga kompozitsiya ishlash, balki, o'quvchilar halq og'zaki ijodlari asosidagi yaratilgan eposlarga, multfilmlarga tasvirlar ishlashni o'rganadilar. Bu esa o'quvchilarni xotirasi va tafakkurini kengayishiga olib keladi, ularning estetik didi va madaniyatini oshiradi.

Rassom Aziza Mamatova "O'smir Kamoliddin Behzod" asarida o'spirin Behzodni tasvirlaydi. Asarda Behzod obrazi nim shaffof rangda, ko'rkam qomat va qiyofada tasvirlaydi. Yosh behzod qizil dog'lari bor zumrad rangli libos kiygan. Uning qarashlarida qalb tug'yonlari namoyon bo'ladi. Cheksiz osmon o'smir olamini suv va havoga tutashib ketgan nur choyshabi misoli o'rab olgan. Uni o'rab turgan ramzlar esa go'yo insonning ichki olamidan nur sohib chiqayotgandek ko'rinadi. Qaqnus qushi-tuproqdan bosh ko'tarayotgan hayot ramzi, tabiatning o'zgaruvchan ekanligini yodga soladi. Qanotli oq ot

rassomlar, musiqachilar va shoirlar uchun ilhom va ijod ramzidir.

Kumush-oq, tillarang-soflik, ongning tiniqligi va maqsadlarning ezguligi ramzi. Yarim oy-Behzodning ajdodlar merosini o'zlashtirib va o'z asarlari bilan olamni boyitib, ijodkor shaxs sifatida o'sib-ulg'aytirgan mamlakat madaniyatini ifodalaydi. Feruza ko'k va moviy ranglarni o'z ichiga olgan osmoniy rang asar jozibadorligini ta'minlaydi¹².

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki o'qitishning o'quvchilar yoshiga maosligi printsiplari qadimdan qo'llanib kelingan. Bunda, yaqindan uzoqqa, ma'lumdan noma'lumga, oddiydan murakkabga, osondan qiyinga, konkretlikdan abstraktlikka printsiplariga asoslaniladi. Pedagogikada bu printsiplari qadimdan tajribadan o'tganligi sababli o'qituvchini o'z faoliyatida shu yo'ldan borishi ko'zlangan maqsadga erishuviga asos bo'ladi. Kezi kelganda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, hamma oson narsalar ham bolalarga tushunarli bo'lavermaydi va aksincha murakkab materiallar tushunarli bo'lishi ham mumkin. Bunda o'quvchilarning yoshi, pedagogik-psixologik xususiyati, bilim darajasi, tayyorgarligi, qobiliyati muhim

¹² Usmonov O va Madraximov A. "Kamoliddin Behzod".-T. : A.Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashr.,2000.-48b



rol o'ynaydi. Masalan, tasviriy san'atni o'qitishda yaqindan uzoqqa borish printsiplarda ish tutish maqsadida o'qituvchi avval bolalarga yaqin bo'lgan

o'zbek xalqining tabiati, turmushi, mehnatini tasvirlovchi O'zbekiston rassomlari asarlarini o'rgatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Usmonov O va Madraximov A. "Kamoliddin Behzod".-T. : A.Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashr.,2000.-48b
2. Ойдинов Н. Рассом - ўқитувчилар тайёрлаш муаммолари. Т,Ўқитувчи, 1997.
3. Gulchexra Ozodovna Sultanova (2023). XORAZMDA CHITGARLIK VA MATOGA GUL BOSISH SAN'ATI. Oriental Art and Culture, 4 (2), 694-699.
4. Sultanova G. Xorazm amaliy san'ati asarlarini muzeylashtirishda terminlarni o'rganishning ahamiyati O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi. Zamonaviy tasviriy va amaliy san'at: terminologiya, yutuqlar va muammolar.Respublika ilmiy-amaliy seminar to'plami 2022. – B. 40–45
5. S.S.Safasheva. Milliy an'analar asosida talabalarni quroqchilikka o'rgatish metodikasini takomillashtirish. PEDAGOGIKA. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 6/2025, 264-268b
6. S.S.Safasheva ZAMONAVIY LIBOSLARDA QUROQ TEXNIKASINI QO'LLASH <https://doi.org/10.5281/zenode.18381157>.www. lajoe.otg. Latin American Journal of .2026 –yanvar. (587-591).